ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 2.1-2

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.05.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:
Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Dilrabo Ergasheva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.05.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Дильрабо Эргашева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.05.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)
Dilrabo Ergashova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

KURBANOVA MUHABBAT MATYAKUBOVNA,
SARBAROVA DILNOZA NOSIRJON QIZI
Deyksis va anafora tushunchalari: o‘xshash va farqliliklar 7

JUMANYAZOVA MUHABBAT XUSINOVNA
Xorazm vohasi folklori tilidagi muarrablar 10

KURBANAZAROVA NARGIS SHODIYEVNA
Qo‘ng‘irot etnonimining fonetik-fonologik
variantlarida semantik tafovut 13

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
O‘zbek adabiy tilida paremiyalarga xos xususiyatlar 18

O‘RAZOVA IQBOL ABDIKARIMOVNA
«Ko‘ngil» leksemasi va uning «tafakkur»
sememasidan shakllangan frazemalar tahlili 22

XOLOVA MUYASSAR ABDULHAKIMOVNA,
BOZOROVA ELINOR,
XOLIQULOVA ZARNIGOR
Alisher Navoiy korpusi tadqiqiga doir ayrim qaydlar 26

SAATOVA SURAYYO ISMAILOVNA
Individuallik – yozuvchi lisoniy shaxsini belgilashda muhim ko‘rsatkich
(J.Jovliyev asarlari misolida) 29

MUKUMOV MAKHMUD KHUDAYBERDIEVICH
Discourse and the formation of scientific meaning 32

IBODULLAYEVA KUNDUZ RUSTAM QIZI
Ilmiy diskursda janrlar masalasi va uning xususiyatlari 36

YADIGAROVA SITORA BAXRAMOVNA
Ingliz va o‘zbek tillaridagi kiyim va mato komponentli frazeologik
billiklarning konnotativ va denotativ ma’nolari 41

МИРЗАЕВА ШАХЛО РИЗАЕВНА,
РУЗИЕВА МУШТАРИ ХУСНИДДИН КИЗИ
Отличие синонимов от многозначных
слов в русском и узбкском языках 43

ХАЙДАРОВА ГУЛБАХОР ЮЛДАШЕВНА
Трансформация глагольной основы в прилагательное
с помощью суффиксов 47

ВАПАЕВА АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА
Компонентный анализ активно употребляемых
единиц современной русской и узбекской лексики 51

ЙУЛДОШЕВА САОДАТЖОН ШУХРАТ КИЗИ
Формы обращения и речевого этикета в русскоязычных
и узбекоязычных онлайн-коммуникациях 55

МУНДАРИЖА

SOBIROVA GULSHANA FAXRIDDINOVNA
O‘zbek tili haqoratli so‘zlar izohli lug‘atini tuzish tamoyillari 61

YULBARSOV OCHILBEK OBIDJON O‘G‘LI
Neologizmlarning korpus tahlili yordamida tadqiq etilishi va
ularning konkordanslari asosida ma’lumotlar
bazasini shakllantirish tamoyillari 66

OQILA ABDULLAYEVA XOLMO‘MINOVNA
Turkiy tilshunoslikda dependency parsingga oid tadqiqotlar 72

HILOLAXON SHUHRATXON QIZI PO‘LATXONOVA
Neurolinguistic analysis of public speeches
on persuasive strategies in political rhetoric..... 78

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA
O‘zbek antroponimikasida ism tanlash masalalari..... 81

ADABIYOTSHUNOSLIK

УМУРЗОҚОВ БАҲРИДДИН САФАРОВИЧ
Алий Сафий Ҳиравий қаламига мансуб янги топилмалар 84

XALILOVA SHOHISTA MUHAMMADI QIZI
Rey Bredberining asarlari va o‘zbek adabiyotida
anti-utopik mavzularning qiyosiy tahlili 89

ABDIVALIYEV OBITJON ODILJONOVICH
Abdulla Qahhorning «Boshsiz odam»
hikoyasida huquqsiz ayol timsoli 92

QARAQULOV AZIZBEK
Inson va tabiat muammosining o‘rganilishi..... 94

TA’LIM

SHAMSIDDINOVA DILAFUZ FAXRIDDINOVA
The efficacy of contextual learning through extensive reading
and listening in enhancing esl speaking vocabulary 99

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 3-4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O'ZBEK ADABIY TILIDA PAREMIYALARGA XOS XUSUSIYATLAR

Babaxanova Dilarom Axmatxanovna,
Namangan davlat universiteti dotsenti

Lingvokulturologiya va paremiyalarning lingvokonseptual tadqiqi borasidagi izlanishlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, mazkur soha XX asrning so'nggi choragida shakllandi, *lingvokulturologiya* termini esa V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bog'liq ravishda paydo bo'lgan. Lingvokulturologiyaning yuzaga kelishi haqida gapirganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.fon Gumboldtga borib taqalishini ta'kidlaydilar.

Tilshunoslikda bu sohaning shakllanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, H.Glints, H.Holts, U.D.Whitney, D.W.Powell, F.Boas, E.Sapir, B.L.Whorf, G.Brutyan, A.Vejbickaya, D.Hyms kabi tilshunoslarning qarashlari muhim rol o'ynaganligi ta'kidlanadi.[1] Hozirgi antroposentrik fanlar kesimida qator falsafiy, milliy-mental, ilmiy-maishiy, ijtimoiy-siyosiy tushunchalar lingvokonsept sifatida tadqiq qilinmoqda. Jumladan, dunyo tilshunosligida konseptlar va u bilan bog'liq juda ko'p assotsiativ tushunchalar o'rganilgan. Jumladan, rus tilshunosligida F.B.Muxutdinova[2], O.A.Chibisheva[3], V.V.Vasyuk[4], Y.V.Belik[5], L.V.Adonina[6],M.A.Andreyanova[7], N.A.Paskova[8], Y.V.Mesheryakova[9], G.A.Sadriyeva[10], I.O.Okuneva[11] kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

O'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya, konsept, paremiyalarning lingvokulturologik jihatlari borasida R.S.Ibragimova[12], M.M.Rahmatova[13]lar tomonidan monografik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, maqol va matal, frazeologizmlarning lingvokonseptual jihatlari, semantikasi va shakllanish asoslari Z.Xolmonova, B.Jo'rayeva kabi bir qator o'zbek olimlari tomonidan tahlillar asosida o'rganilgan.

Mazkur maqolada diaxron tahlil, qiyosiy tahlil, semantik tahlil, stilistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

O'zbek tilshunosligidagi paremiyalar semantik, lingvokulturologik jihatdan tahlil etilgan. O'zbek xalqining madaniy munosabatlari dunyoqarashi, urf-odat, an'analarini yoritishda paremiyalar tadqiqi amaliy ahamiyat kasb etadi. Paremiyalarni asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin.

1. Paremiyalar barqaror birikmalar qolipi sifatida yaxlit mazmun ifodalaydi.

2. Paremiyalardagi mazmun didaktik xarakterga ega. Ulardagi hukm, albatta, ezgulikka da'vat maz-

[1] Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие. – М.: Academia, 2001. – 208 с

[2] Мухутдинова Ф.Б. Концепт «Женщина» во французском языковом сознании (на материале афористики): Автореф. ...дисс. канд. филол. наук. – М., 2006. – 21 с.

[3] Чибишева О.А. Рус ва инглиз фразеологизмларида аёл концепти: Автореферат. – Челябинск, 2005. – 31 с.

[4] Васюк В.В. Концент «женщина» в статике и динамике фразеологии английского языка: Автореф. дисс.. канд. филол. наук. – М., 2002. – 24 с.

[5] Белик Е.В. Лингвокультурологические особенности лексики и фразеологии современного английского языка (на материале лингвокультурологического поля «мужчина и женщина»): Автореф... дис. канд. филол. наук. – М., 2003. – 23 с.

[6] Адонина Л.В. Концепт «женщина» в русском языковом сознании: Автореф. дисс... канд. филол..наук. – Воронеж, 2007. – 23 с.

[7] Андреянова М. А. Реализация концепта «мать (mother)» в русском и английском языках (на материале романов М. Горького и Дж. Э. Стейнбека) // М. А. Андреянова, Г. А. Багаутдинова. Вестник.Челябинского государственного университета. Филология. Искусствоведение. Вып. 55. – Челябинск: Издательство Челябинского государственного университета, 2011. – С. 17 - 22

[8] Паскова Н.А. Концепт «женщина» в текстах среднеанглийского периода: Опыт семантической реконструкции на основе произведений Дж. Чосера: Автореф. кандидат филологических наук. – Иркутск, 2003. – 36 с.

[9] Мещерякова Ю.В. Концепт «красота» в английской и русской лингвокультурах: Автореф. дисс.… канд. филол. наук. – Волгоград, 2004. – 24 с.

[10] Садриева Г.А. Устойчивые образные средства, репрезентирующие концепт «красота», в английском, русском и татарском языках: Диссертация кандидата филологических наук. – Казань, 2007. – 209 с.

[11] Окунева И.О. Концепт "красота" в русском и английском языках. Диссертация кандидата филологических наук. – М., 2009. – 313 с.

[12] Ибрагимова Р.С. Француз ва ўзбек тилларида аёл концептининг лингвокогнитив тадқиқи. Автореф. Фил. фан номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган. – Тошкент, 2012. – 31 б.

[13] Раҳматова М.М. Инглиз, ўзбек ва тожик миллий маданиятида "гўзаллик" концептининг лисоний хусусиятлари. Фил. фанлари бўйича фалсафа доктори дисс. автореф. – Бухоро, 2019. – 51 б.

munida bo‘ladi.

3. Paremiyalarda tushunchalar, leksemalar ko‘chma ma’nodagi mazmunga xizmat qiladi, ammo ular real asosga ega bo‘ladi.

4. Paremiyalarda kundalik tajriba, hayotiy munosabatlarga asoslanadi. Shu bois ular davrlar osha takomillashib, mazmunan boyib boraveradi.

5. Paremiyalardagi mazmun sotsiolingvistik, psixolingvistik, kognitiv, pragmalingvistik qiymat kasb etadi, tadqiqotchilardan integrativ asosdagi bilimga ega bo‘lishni talab etadi.

Paremiologiyada quyma fikrni ifodalovchi eng mayda birlik paremiya deb ataladi. Paremiya – yunoncha «chuqur ma’noli gap, hikmatli so‘z, ibora, maqol, matal» ma’nosini beradi8. Paremiologiya tilda maqol, matal, aforizm, frazeologizm kabi hikmatli iboralarni ikki planda o‘rganadi.

1. Paremiyalar avloddan avlodga faqat og‘zaki holdagina o‘tib kelganligi, xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo‘lganligi uchun adabiyotshunoslik fanining o‘rganish obyektidir, bu hikmatli iboralarning ko‘pchiligi ko‘proq she’riy shaklga o‘xshaydi va ularga o‘xshatish (istiora, tashbeh, metafora), taqqoslash (antiteza), parallelism, anafora, qofiyalash, evfonik vositalar (alliteratsiya, assonans), kinoya, пичинг, kesatiq, kabi badiiy tasvir vositalari qo‘llanilgan bo‘ladi.

2. Paremiyalar so‘zlardan tuzilib, ma’lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo‘lgani uchun tilshunoslikning ham o‘rganish obyektidir, chunki ular so‘zlardan hosil bo‘lishiga ko‘ra oddiy gaplarga o‘xshahsa ham, mazmuni, strukturasi, intonatsiyasi va boshqa grammatik xususiyatlari jihatdan o‘ziga xosliкларга ega.

Chunki xalq ijodiyotiga mansub barcha mikrojanrlar adabiyotshunoslikning xalq og‘zaki ijodida tadqiq etiladi va ular quyidagi umumiy belgilar asosida birlashadi (2-chizma):



Paremiyalar giperbola, metafora, metonimiya, litota, antiteza, oksyumoron, qiyoslash, epifora, anafora, rifma kabi badiiy poetik va ekspressiv stilistik unsurlar asosida shakllanadi. Bu esa nutq ta’sirchanligi, uni qabul qilishdagi tezkorlik, ta’limiy ta’sir kabilarni kuchaytirib oladi. Bu holda biz paremiyalarni nafaqat xalq og‘zaki ijodidagi ko‘pfunksiyali, mantiqiy umumiylik, o‘quv-tarbiyaviy maqsadlarda keng ishlatilishini e’tirof etishimizdan tashqari, ular gnoseologiya, logika, folkloristika, lingvistika, semiotika, etnografiya, etnopedagogika va boshqa bir qator fanlarning o‘rganish predmeti sifatida ham ko‘rishimiz mumkin. Aynan paremiyalarni ko‘p funksiyaliligi turli ilmiy yo‘nalish vakillari diqqatini o‘ziga tortadi. Paremiyalar, shuningdek, o‘z xalqonaligi, ko‘p qirrali, mantiqiy funktsiyali bilan ham mutaxassislarning diqqatini tortadi. Bu yerda paremiyalarni konstruktiv butunligi, mantiqdagi ekspressivlik va aniqlik, pedagogik ahamiyati muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbek tilshunosligida xalq maqollarining to‘laqonli sinonimik lug‘atini yaratish kabi muhim vazifa B.Jo‘raeva tomonidan uddalandi. Olima tomonidan tuzilgan, tartiblangan paremik birliklar sinonimiyasi asosida yaratilgan mazkur lug‘atni ushbu yo‘nalishda yaratilajak leksikografik ishlarning debochasi sifatida baholash mumkin. Asosiy paremiologik birlik sifatida qaraluvchi maqollarni lingvokulturologik jihatdan o‘rganuvchi ilmiy izlanishlarning ortib borayotganligi o‘zbek tilshunosligi ham rivojlangan jahon tilshunosligi bilan hamohang qadam tashlayotganligidan darakdir. Bunga misol qilib D.Jabborzoda, R.S.Ibragimова, I.Bayonxonovlarning ishlarini keltirish mumkin. A.Nurmonovning paremiyalar safiga frazeologizmlarni qo‘shishi o‘zbek tilshunosligida ham paremiologiya sohasiga kengroq planda yondashishning boshlanganligidan dalolatdir.

Paremiologik birliklar safiga frazeologizmlarni kiritish yoki kiiritmaslik muammosi tilshunoslikda ancha munozarali mavzu hisoblanib, bu frazeologiya va paremiologiyaga oid turlicha qarashlar tufayli yuzaga kelgan. Shunga ko‘ra, paremiologiyaning frazeologiyaga munosabatiga ko‘ra 4 xil qarash mavjud:

1. Paremiologiyani tor ma’noda tushunuvchilar frazeologiyani paremiologiyaga aloqador emas, deb

hisoblaydilar.

2. Paremiologiyani keng ma'noda tushunuvchilar frazeologizmlarni uning o'rganish obyekti sirasiga kiritib frazeologiya paremiologiya ichida o'rganiladi, degan fikrni shakllantiradilar.

3. Frazeologiyani tor ma'noda tushunuvchilar paremiologiyaning asosiy birliklari maqol va matallarni o'rganish obyekti sifatida ko'rmay, ularning frazeologiyaga aloqadorligini rad etadilar.

4. Frazeologiyani keng ma'noda tushunuvchilar maqol va matalni uning satxida o'rganishni bildirib, paremiologiyani frazeologiyaning qismi sifatida ko'radilar.

«Olamning lisoniy manzarasi» (sprachliches Weldbild) tushunchasi Leo Vaysgerber tomonidan olib kiritilgan. Olamning lisoniy manzarasi voqelikni idrok etishning tilda muhrlangan va muayyan lisoniy jamoa uchun xos bo'lgan tuzilishi, olamni idrok etish va konseptuslashtirishning universal, ayni paytda milliy xoslangan usuli. Har bir tabiiy til olamning o'ziga xos lisoniy manzarasi hisoblanadi. L.Vaysgerber fon Gumboldtning «til faoliyatning mahsuli emas (Ergon), balki faoliyatdir (Energeia)» degan qoidasini davom ettirib til tadqiqiga «energetik» munosabatni targ'ib qiladi. Chunki til olam haqidagi nuqtai nazarnilarnigina ifodalabgina qolmay, balki uning o'zi olamdir. Oxirgi yillarda olamning lisoniy nazariyasi mavzusi tilshunoslikda eng faol mavzularidan bo'lib qolmoqda. Zamonaviy qarashlarda olamning lisoniy manzarasi atamasi xususida har bir tadqiqotchi o'zining ilmiy qarashlarini bayon etmoqda.

Lingvomadaniyatshunoslikning yana bir muhim tushunchalaridan biri stereotiplardir. Stereotiplar muayyan guruh yoki jamoaning soddalashgan emotsional bo'yoqdor va favqulodda barqaror bo'lgan obrazi, turli madaniyat vakillari tili va tafakkurining o'ziga xosligi. Stereotiplar hech qachon alohida kishilarda paydo bo'lmaydi, ular har doim guruhlarda yuzaga keladi.

Lingvokulturologik tadqiqotlarda, asosan, quyidagi masalalar tadqiq etilganini ko'rish mumkin:

1) muayyan nutqiy janrning lingvokulturologik xususiyatlari. Bunda ko'pincha miflar, xalq og'zaki ijodga xos janrlar tili tahlil qilingan;

2) muayyan uslubda yozilgan asarda lingvokulturologik konseptus ifodalanishi tadqiqi. Bunda, asosan, badiiy-nasriy asarlar tili tahlil etilgan;

3) qiyosliy aspektdagi ishlar. Bunda asosan rus tilidagi lingvoma'daniy birliklar ingliz, nemis, fransuz tillari bilan qiyoslangan;

4) lingvokulturologiyaning redagogika fani bilan bog'liq jihatlari. Bunda talabalarda lingvokulturologik birliklarni aniqlash va tahlil etish malakasini hosil qilish asosiy maqsad qilib olingan.

Paremiologik birliklar fondi olam nazariyasi shakllanishida, xalqning lingvokulturologik salohiyatini belgilashda muhim qiymatga ega. Chunki u xalq tafakkurining lingvokulturologik konstantlari tadqiqotida muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Paremiyalarning asosiy qismini tashkil etuvchi yaxshilik, yomonlik, yolg'on, sabr, dard kabi tushunchalar etnik dunyoqarash asosida axloqiy barkamollikka chaqiradi. Ularga milliy madaniyat uchun xos bo'lgan o'zini tutish, munosabat me'yor va qoliplari orqali xalq tafakkurining asosiy stereotiplari aks etadi. Tilning paremiologik fondini lingvistikaning lingvokulturologik yo'nalishida tadqiq etish xalqning mentaliteti va uning madaniy o'ziga xosligi ilmiy asoslashda ahamiyatlidir.

Maqol va matallar – arxetipik ahamiyatga ega bo'lgan jamoaviy tafakkur natijasi. Ular xalq ijodi ning jamoaviy asarlari sifatida dunyoga keladi. Shu jihatlarga ko'ra ularning lingvokulturologik sathdagi o'ziga xos belgilari quyidagilar.

1. Ohangdorlik: maqol va matallar har bir til sohibi tomonidan fonetik shakli bilan qabul qilina olishi zarur. Maqollardagi qofiyalik, aliteratsiya o'hangdorlikni ta'minlashga xizmat qiladi (Onali yetim – gul yetim, otali yetim – shum yetim).

2. Aniqlik va mavhum tushunchalarni aniq obrazlar orqali tasvirlash: bunda mavhum tushunchalar aniq xo'jalik obrazlari yoki hayvonlar, tabiat obyektlar orqali o'z ifodasini topadi (It itligini qilmay qo'ymaydi. Bunda it salbiy illatlarni jamlagan shaxs xarakterining muayyanlashtirilgan obrazidir).

3. Qisqalik va lo'ndallik: maqol va matallarda xalq donishmandligi, ko'p asrlik tajribasi tez tushunarli shaklda va qisqa ifodalarda aks etgan bo'ladi (Komilni komil bilar).

4. Umumiylikning ifodalanishi: maqollarda har bir insonga yaqin bo'lgan falsafiy mushohadalar aks etishi (Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin).

O'zbek tilshunosligida ham paremiyalarni lingvokulturologik sathda tadqiq qilgan izlanishlarning mavjudligi dunyo tilshunoslari diqqatini tortgan bu dolzarb masalaning o'zbek olimlari nazariidan chetda qolmayotganligidan dalolat beradi. D.Jabborzoda ingliz va rus tilidagi maqol va matallarni milliy-madaniy jihatdan qiyosan tahlil qiladi. Tilshunos R.S.Ibrahimova esa fransuz va o'zbek paremiologiyasi materiallari asosida ayollar konseptusini lingvokulturologik jihatdan tadqiq etgan. I.Bayonxonova «Turli tizimdagi tillarda paremiyalarni umumiy jihatlari» maqolasida paremiyalarni umumbashariy g'oyalarini tahlil qiladi. Ayni paytda tadqiqotchilar paremiologik fondni lingvokulturologik jihatdan o'rganishga qaratilgan qator tadqiqotlar ustida ilmiy izlanmoqdalar.

Maqol va matallar millatning g'oyaviy va intellektual madaniyatini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Paremiyalarda inson turmushi va ongini aniq va obrazli aks ettiruvchi manzara quyidagilar:

1. Inson tomonidan o‘zining va hayot qonuniyatlarining anglanishi. Masalan, turmushdagi keskin burilish qonuni хулосаси: Lo‘lining chirmandasi yorilsa, gardişi maymunga o‘yinchoq bo‘ladi. Izoh: «Kishi qarisa, quvvatı ketsa, boyligidan ajralsa yo amalidan tushsa, tevarak atrofdagi kishilarga, oila a’zolariga, hatto yosh bolalarga ham mayna bo‘lib qoladi».

2. Jamiyat qonunlarining qabul qilinishi va an’analarining idrok etishi. Masalan, o‘zbek milliy jamiyatidagi кекsa insonlarning hayot davomida tafakkuriga ishonch xulosasi: Qariyali uyda qo‘y ham omon, bo‘ri ham to‘q. Izoh: Odatda bir oila farzandlarining fe’l-atvori turlicha bo‘ladi: biri yuvosh, muloyim tabiatli bo‘lsa, biri badjahl, badfe’l, bemehr bo‘ladi. Uyda gi кекsa lar ularni bir-biriga qovushtirib, o‘rtada kelishmovchilik bo‘lsa, murosaga keltirishadi. Maqolda shu hol ifoda etilgan.

3. Hayot, o‘lim, taqdir, sog‘liq, baxt, sevgi va boshqa inson uchun muhim bo‘lgan, qadriyatlar majmuasining idrok etilishi. Masalan, xalqning baxt tasodifiy emas, unga yetishi uchun xarakat qilish kerak mazmunidagi nuqtai nazar хулосаsi Baxt qushini ushlamoq uchun, baxt oviga chiqmoq kerak maqolida o‘z ifodasini topgan. Izoh: Quruq tilak, orzu-istak bilan baxtga erishib bo‘lmaydi, bilagingni ishga sol, mehnat qil, deyilmoqchi.

B. Jo‘rayeva maqol va matal o‘rtasidagi quyidagi farqlarni keltiradi:

1. Matallarning shakliy ko‘rinishi, asosan, o‘zgarmaydi (grammatik shakllar o‘zgarishi bundan mustasno, albatta):

Kattagaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda bo‘l.

2. Maqollar timsollar vositasida ish ko‘rar ekan, jamiyat hayoti, xalq turmushi bilan bog‘liq holda ularning timsollar tizmasi – shakli o‘zgarib turadi:

Bir qinga ikki qilich qig‘magay (P.Qodirov. «Yulduzli tunlar», 270-bet).

Ikkita qo‘chqorning boshi bir qozonda qaynamas (S.Ahmad. «Jimjitlik», 256-bet).

3. Maqollar grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, o‘tkir mazmunli, ko‘chma ma’noda ishlatilu vchi qisqa , ixcham xalq hikmatlaridir.

Insoniyat bugun sivilizatsiyalashgan, axborot almashinuvi tezkorligi mislsiz darajada tezlashgan davrda ezgu g‘oyalarini birlashtira olish imkoniyatiga ega. Madaniyatlararo, bilimlararo globallashuv tafakkur olami mizi shu qadar kengaytirib yuborganki, dunyoning bir chekkasidan turib boshqa bir chekkasiga umumbashariy mushohadalarni anglay olamiz. O‘zga bir xalq madaniyati, milliy xususiyatlaridan boxabar bo‘la olish va xis qilish sharoitlari mavjud. Istagan savolimizga bir zumda javob ola bilamiz. Lekin shunday tushunchalar borki, ularni chuqur anglash uchun o‘sha tushunchalarni yaratgan insonlar qatori da yashash kerak bo‘ladi. Mohiyatan bir hodisalar, tushunchalar barcha millatlar uchun birdek taalluqli bo‘lsa-da, ularga olib boruvchi yo‘llar turfa. Ana shu bir-biridan farqlanuvchi tafakkur yo‘llari ma’lum bir millatgagina xos bo‘lgan mentalitetdir. Yoki bir olamning millatlar tasavvuridagi turlicha ko‘rinishdagi olam tasvirlari. Har bir olam tasviri yaratilishiga ko‘ra o‘ziga xos jarayonlar tizimiga ega. Aynan ushbu jarayonlar olam tasvirlarining bir-biridan farqini belgilaydi. Bu jarayonlarni bosib o‘tmay, millatga xos mental xususiyatlarni kashf qilish mumkin ham emas. «Maqollarda kuzatishlar asosida xalq donishmandligi, xalqning hayotga bahosi хулосalari mavjud»ekan, ularda millat qarashlaridagi olam lisoniy manzarasi mavjud. Ular borliq bilan munosabat natijasida shakllangan tasavvurlarni mental o‘ziga xosli klar bilan ifoda lay oladi. Tilshunos E.Ivanova xalqning olamni qabul qilishida shakllanadigan lisoniy manzarasi xaqida shunday deydi: tilning lisoniy manzarasini 3 ta asosiy guruhga bo‘lish mumkin:

1) Leksik olam manzarasi;

2) Frazeologik olam manzarasi;

3) Maqoldagi olam manzarasi.

Lingvomadaniy birlik bu lisoniy belgining ma’nosi va madaniy mazmun birikuvidan tarkib topuvchi, semantikasida axborot yaqqol nomoyon bo‘luvchi til birliklaridir. Jumladan, frazeologizmlar, etalonlar, ramzlar, metaforalar, turg‘un o‘xshatishlar, nutqiy etiketlar, urf-odat va marosimga doir so‘zlar, topishmoqlar, muqobilsiz leksika, lakunalar, presedent birliklar lingvomadaniy birlik sifatida talqin qilish mumkin. Shuning uchun ham tadqiqotchilar lingvokulturologiya doirasida millatga oid konseptlarni o‘rganishda paremiologik manbalarga murojaat qilmoqdalar.

Resume. The article explores the linguistic and cultural characteristics of proverbs and sayings, revealing the relationship between linguistics and cognitology, psychology, philosophy, ethics-aesthetics, and linguoculturology. The expression of cultural concepts such as hospitality, childhood, patience, and respect for parents in paremiological units in Uzbek folk folklore is analyzed.

Резюме. В статье исследуются лингвокультурологические особенности пословиц и поговорок, выявляются взаимосвязи языкознания с когнитологией, психологией, философией, этикой-эстетикой и лингвокультурологией. Анализируется выражение таких культурных концептов, как гостеприимство, детскость, терпение, уважение к родителям в паремиологических единицах узбекского фольклора.